



«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

**“SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI”
ILMIY-USLUBIY JURNALI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

13-DEKABR, 2022-YIL

5-SON

O‘ZBEKISTON

2022

| MUNDARIJA: | | |
|-------------------|--|-----------|
| 1. | Amonova Mahliyo Safarovna <i>TIRIK ORGANIZMLARDA MODDALAR VA ENERGIYA ALMASHINUVI</i> | 8 |
| 2. | Ташев Комил Ахматович Даминов Акмальбек Абдурасулович <i>ТЕСТИРОВАНИЕ СТАТИСТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ГЕНЕРАТОРОВ ПСЕВДОСЛУЧАЙНЫХ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЕЙ</i> | 11 |
| 3. | Beknazarova Feruza Sobir qizi <i>BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ESTETIK DUNYOQARASHNI TARBIYALASH MEKANIZMLARI</i> | 15 |
| 4. | Gulnoza Teshayeva <i>PARALLEL MAQOLANING JANRIY XUSUSIYATLARI</i> | 21 |
| 5. | Mo'minova Feruza Farmonovna <i>"ALISHER NAVOIY" ROMANIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI (ISAJON SULTON ASARI ASOSIDA)</i> | 24 |
| 6. | Шодиева Ойгул <i>БОЛАЛАРГА МУСИҚАВИЙ-РИТМИК ҲАРАКАТЛАРНИ ЎРГАТИШ ВА БОЛАЛАРДА МУСИҚИЙ ТАРБИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РИТМИК ҲАРАКАТЛАРНИНГ ЎРНИ</i> | 28 |
| 7. | Собир Мансуров <i>ДИЛАФГОР АДАБИЙ МЕРОСИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚИ</i> | 34 |
| 8. | Комилова Ёркиной Нўмоновна <i>БОСМА ВА ИНТЕРНЕТ НАШРЛАРИДА СИЁСИЙ ПОРТРЕТ: МУАЛЛИФ ЁНДАШУВИ, ТИЛ ВА УСЛУБ ИФОДАСИ</i> | 38 |
| 9. | Dushatova Shohsanam Baxtiyor qizi Abdulkhodieva Khayitkhon Abdurazzoq qizi <i>HOW DOES DIALECT AFFECT THE LANGUAGE?</i> | 45 |
| 10. | A.O.Mamanazarov M.A.G'anijonova O.A.Abdubannopova <i>RIMAN-LIUVILL MA'NOSIDAGI KASR TARTIBLI DIFFERENSIAL OPERATORNI O'Z ICHIGA OLUVCHI CHIZIQLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISHNING DALAMBER USULI</i> | 49 |
| 11. | A.Mamanazarov F.Mamanazarova I.Mo'ydinov <i>SINGULYAR KOEFFITSIYENTLI TENGLAMA UCHUN YARIM POLOSADA NOLOKAL MASALA</i> | 54 |
| 12. | Akhadova Hulkaroy Choriyeva Oyshabibi Shavkatovna <i>STUDYING ABROAD</i> | 60 |
| 13. | Z.Olqarova B.Boyev <i>TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASHI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</i> | 63 |
| 14. | Abdulboqiyeva Oydina Abdurashit qizi <i>AXBOROT- KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYA TERMINOLOGIYASIDA TRANSTERMINLASHISH VA DETERMINLASH JARAYONI</i> | 73 |
| 15. | Sharora Xamrayeva Rustambek qizi | 76 |

PARALLEL MAQOLANING JANRIY XUSUSIYATLARI

Gulnoza Teshayeva

BuxDU adabiyotshunoslik mutaxassisligi II bosqich magistranti

gulnozateshayeva1999@gmail.com

Annotatsiya: *Adabiy tanqidchilikning mustaqil janri hisoblangan adabiy parallel ham o'z ichki xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi. Ushbu maqolada yosh adabiyotshunos Anvar Allamberganovning "O'zbek nasrida Abu Rayhon Beruniy obrazining yoritilishi" maqolasi tahlil qilinib, parallel maqolaga xos bo'lgan janriy xususiyatlar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *parallel maqola, epik tur, ixchamlilik, ilmiylik, Beruniy obrazi, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-tarixiy metod.*

Adabiy tanqid ham o'zining maxsus janrlariga ega soha hisoblanadi. O'zbek adabiy tanqidchiligida adabiy parallelni hajmiga ko'ra shartli ravishda adabiy maqola, monografiya yoxud dissertatsiya ko'rinishida tasnif qilish mumkin. Ularning har biri o'z janriy tabiatidan kelib chiqqan holda xususiyatlarini namoyon qiladi. Adabiy parallelning muhim janriy xususiyatlaridan biri bu kamida ikki asar yoki ijodkorning o'xshash va farqli jihatlari qiyoslanishidir. Taniqli rus tanqidchisi B.F. Yegorov o'zining "О мастерстве литературной критики: жанры, композиция, стиль" nomli tadqiqotining "Диалог и литературная параллель как жанры" bo'limida adabiy parallelning janriy xususiyatlarini tahlil qilar ekan, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "...qat'iy qilib aytganda, u (adabiy parallel) ni materialning qamrov kengligi bo'yicha tasniflangan janrlar guruhiga kiritish kerak: adabiy portret - bu bir yozuvchi haqidagi maqola, monografik taqriz - bir asar haqida, obzor - ko'plab yozuvchilarning ko'p asarlari haqida yozilsa, parallel - bir-biriga qiyoslanuvchi ikki yoki undan ortiq asar yoxud ijodkor haqida yoziladi".¹

Buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy yaratgan asarlar necha asrlardan buyon insoniyat tamadduni rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Fanning turli sohalariga 160 ga yaqin asarlar yaratgan zabardast olim siymosi turli ijodkorlarning turli janrdagi asarlarida o'z aksini topgan. Beruniy haqida mashhur olim va tarixchi Abdulfazl Bayhaqiy: "...u narsalar mohiyatini tushunishda, ijodiyot, riyoziyot va falsafada shunchalik bilimdon ediki, o'z davrida unga teng keladigan kishi yo'q edi", - degan edi. J.Sarton esa "XI asr - fan tarixida Beruniy davridir", - deya allomaga yuksak baho bergan. S. Tolstov Beruniy siymosida O'rta asrlar Sharqining ulug' qomusiy olimi - astronomi, geografi, minerologi, etnografi, muarrix, shoiri mujassamlashganligini ta'kidlagan.² O'zbek adabiyotida ham buyuk bobokalonimiz hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan bir qator badiiy³ asarlar yaratilgan.

¹ Егоров Б. О мастерстве литературной критики: жанры, композиция, стиль. — Ленинград : Сов. Писатель, Ленинградское отд-ние, 1980. — С.-193.

² Комилов Н. Тафаккур карвонлари. — Тошкент: "Маънавият", 1999.- Б.-18.

³ Osim M. Jayhun ustida bulutlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975; Shermuhammedov P. Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati. — Toshkent: "Voriz nashriyoti", 2009; Yoqubov O. Ko'hna dunyo. — Toshkent: "Sharq", 2018; Muhammadrizo Q. Omonat tuhfa. — Toshkent: "Noshirlik

Yosh adabiyotshunos Anvar Allamberganovning “O‘zbek nasrida Abu Rayhon Beruniy obrazining yoritilishi” maqolasida milliy adabiyotimizda buyuk ajdodlarimiz, mutafakkir olimlar qanday akslantirilmoqda, qaysi ijodkorlar o‘z asarlarida tarixiy voqelikka, tarixiy shaxslar hayotiga murojaat qildilar kabi masalalar qo‘yilgan va bular turli asarlarni tahlilga tortish orqali ochib berishga harakat qilingan. Umuman olganda, maqola o‘zbek nasrida yaratilgan Abu Rayhon Beruniy obrazining umumiy tahlillariga bag‘ishlanadi. Adabiyotshunos Mirkarim Osimning “Jayhun ustida bulutlar”, Pirmat Shermuhammedovning “Dahoning tug‘ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati” qissalari, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo”, Qurbon Muhammadrizoning “Omonat tuhfa”, “Sinov sahnasi” romanlarini, aynan Beruniy obrazi bosh obraz qilib olinmagan bo‘lsa-da, Maqsud Qoriyevning “Ibn Sino” va “G‘aznaviylar” romanlaridagi ma‘lum boblarni tahlil qilish orqali buyuk qomusiy olim obrazlarining qay darajada mahorat bilan yaratilganliklari va tarixiy fakt va manbalardan unumli foydalanganliklarini qiyosiy-tipologik va qiyosiy- tarixiy metodlar orqali ochib beradi.

Parallel maqola sifatida tahlilga tortayotgan maqolamiz quyidagi xususiyatlarga ega. A.Allamberganov maqolada Mirkarim Osimning “Jayhun ustida bulutlar” va Pirmat Shermatning “Dahoning tug‘ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati” qissalarining o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qiladi. Muallif har ikkala qissaning mushtarak jihatlarini sifatida har ikkala asarning bir xil janrda, ya‘ni epik turning qissa janrida yozilganligi va qissalarda bir tarixiy davr va bir tarixiy shaxsga murojaat qilinganligini ko‘rsatib o‘tadi. Asarlarning farqli tomonlari sifatida quyidagi fikrlarni keltiradi: Mirkarim Osimning “Jayhun ustida bulutlar” qisasida:

- voqelikni ixcham bayon qilingan;
- qahramonlarning ichki monologlari va dialoglaridan kam foydalanilgan;
- allomaning shaxsiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlar kam urg‘ulangan;
- olim hayotining so‘ngigiga qadar bo‘lgan voqealar aks ettirilmagan.

Pirmat Shermuhammedovning “Dahoning tug‘ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati”da esa:

- voqelik batafsil bayon qilingan;
- epigraf va iqtiboslarga keng o‘rin ajratilgan;
- alloma asarlarining yozilish tarixi, jarayoni, undan parchalar keltirib o‘tilgan;
- tarixdan ma‘lum Ibn Sino bilan savol-javoblarning bugungi kungacha yetib kelgan qismlari aynan keltirilgan;
- tarixiy shaxs obrazini to‘laqonli ochib berishga harakat qilgan holda ichki monologlardan foydalanilgan;
- Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub she‘rlar aynan keltirilgan;
- Beruniyning insoniylik qiyofasini namoyon qilishda to‘qima obrazlardan unumli foydalanilgan.⁴

yog‘dusi”, 2017; Qoriyev M. Ibn Sino. – Toshkent: “Sharq”, 1995; Qoriyev M. G‘aznaviylar. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2019.

⁴ Allamberganov A. Gullayotgan chechaklar. – Toshkent: “Adabiyot”, 2020. –B.-75-76.

Yuqoridagi qiyosdan ma'lum bo'ladiki, yosh adabiyotshunosning mazkur maqolasi parallel maqola xususiyatlariga javob bera oladi. Bundan tashqari parallel maqolaning xususiyatlaridan yana biri tanqidchining qo'yilgan muammoga izchil yondashuvi va o'z fikrini aniq va dalillar asosida ifodalab berishidir. Anvar Allamberganovning "O'zbek nasrida Abu Rayhon Beruniy obrazining yoritilishi" maqolasida ikki asar qiyosidan so'ng aniq va qisqa xulosa beriladi. Muallifning ta'kidlashicha, "Jayhun ustida bulutlar" qissasi badiiylik bobida maromida bitilgan ixcham asar bo'lsa, "Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati" asari ilmiylikka asoslangan holda alloma obrazini ochuvchi asar hisoblanadi.

Maqolaning keyingi qismida muallif Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romani va Qurbon Muhammadrizoning "Omonat tuhfa", "Sinov sahnasi" romanlarini o'zaro qiyoslash emas, alohida-alohida tahlil qilish yo'lidan boradi, romanlarda yozuvchilarning qay darajada Beruniy obrazini haqqoniy va badiiy bo'yoqlarda aks ettirishi, tarixiy voqelik va badiiy to'qimadan foydalanish mahoratini ko'rib chiqadi. Maqola so'ngida esa o'z umumiy xulosalarini bayon etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, parallel maqolaning spetsifik xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ikki yoki undan ortiq asar yoxud ijodkor qiyoslanishi;
- adabiyotshunoslikning qiyosiy-tarixiy va qiyosiy- tipologik metodlaridan keng foydalanish;
- hajmning ixchamligi (parallel monografiya yoki dissertatsiyaga nisbatan);
- shakl va mazmunning mutanosibligi;
- ilmiy va publististik uslubning qorishiq holda kelishi;
- izchil tahlil, umumlashtirish asosida xulosa chiqarishning ustunligi;
- fikrlarning aniq va dalillar asosida ifodalanishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Allamberganov A. Gullayotgan chechaklar. - Toshkent: "Adabiyot", 2020.
2. Osim M. Jayhun ustida bulutlar. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1975.
3. Shermuhammedov P. Dahoning tug'ilishi yoxud Abu Rayhon Beruniy qismati. - Toshkent: "Voriz nashriyoti", 2009.
4. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. - Toshkent: "Sharq", 2018.
5. Muhammadrizo Q. Omonat tuhfa. - Toshkent: "Noshirlik yog'dusi", 2017.
6. Егоров Б. О мастерстве литературной критики: жанры, композиция, стиль. - Ленинград : Сов. Писатель, Ленинградское отд-ние, 1980.
7. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. - Тошкент: "Маънавият", 1999.